

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB ning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi yillik HISOBOT

I. Umumiy ma’lumot


2025-yil davomida Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga Korrupsiyaga haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali, shuningdek Bankning tarkibiy bo‘linmalari va boshqa manbalaridan jami 25 ta murojaat kelib tushgan. Kelib tushgan murojaatlar aloqa kanallari reyestriga ro‘yxatga olingan.

Eng ko‘p murojaatlar Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelib, 7 ta murojaat qayd etilgan. Shuningdek, Toshkent viloyati va Farg‘ona viloyatidan 4 tadan, Qashqadaryo, Jizzax va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 2 tadan, Andijon, Buxoro, Namangan va Surxondaryo viloyatlaridan esa 1 tadan murojaat kelib tushgan.


Kelib tushgan murojaatlarning:

- 2 tasi Ishonch telefoni (0-800-120-8888) orqali,
- 1 tasi Telegram kanal – SQB AntiKor (@sqbantikor_bot) orqali,
- 3 tasi Bankning rasmiy veb-sayti (compliance-hotline) orqali,
- 19 tasi Bankning tarkibiy bo‘linmalari va boshqa manbalar orqali kelib tushgan.

Aloqa kanallari bo‘yicha murojaatlar soni (jami 25 ta)



Murojaatlar hudud kesimida




II. Ko‘rib chiqish natijalari

Korrupsiya fakti bilan bog‘liq murojaatlar ning 16 tasida korrupsiya fakti tasdiqlangan, 8 tasida esa korrupsiya fakti tasdiqlanmagan.

Murojaatlar yuzasidan 21 ta xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan.

Xizmat tekshiruvlari natijasida 50 nafar xodimga intizomiy chora qo‘llanilib, 25 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan va 14 ta xizmat tekshiruvi natijalari huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

Korrupsiya fakti bo‘yicha murojaatlar



Xizmat tekshiruvlari natijalari:

- O‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari — 21 ta
- Intizomiy chora qo‘llanilgan xodimlar — 50 nafar
- Mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar — 25 nafar
- Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan materiallar — 14 ta

III. Minimallashtirish choralari

Korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish va oldini olish maqsadida bank xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish (KQKMT) masalalari bo'yicha muntazam o'quv-seminarlar va tushuntirish ishlari tashkil etildi. Shuningdek, bank mahsulotlarini sotish va xizmatlar ko'rsatish jarayonlarida inson omilini cheklashga qaratilgan raqamlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirish, elektron bank xizmatlari ko'lami kengaytish belgilab olindi.

Bundan tashqari, ichki nazorat mexanizmlari kuchaytirilib, xizmat tekshiruvlari natijalari bo'yicha tegishli tashkiliy va huquqiy choralar ko'rildi, xodimlar faoliyati ustidan nazorat tizimi takomillashtirildi hamda shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan profilaktik tadbirlar amalga oshirildi.

**Korrupsiyaga qarshi
kurashish xizmati rahbari**



Sh.Ismoilov